

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

ERGASHEV IFTIXOR SULTONOVICH

**SHO‘RXOK TUPROQLARDAN SUN‘IY O‘STIRISH MAYDONLARI
SIFATIDA FOYDALANISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH
(Sirdaryo viloyati misolida)**

06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

UO‘T: 633.34:631.521:632.153(575.17)

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation on
agricultural sciences**

Ergashev Iftixor Sultonovich

Sho‘rxok tuproqlardan sun‘iy o‘stirish maydonlari sifatida foydalanish usullarini ishlab chiqish (Sirdaryo viloyati misolida). 3

Эргашев Ифтихор Султонович

Разработка методов использования солончаковых почв в качестве искусственных площадей выращивания (на примере Сырдарьинской области) 21

Ergashev Iftixor Sultonovich

Development of methods for using saline soils as artificial cultivation areas (in the example of Syrdarya province)..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

ERGASHEV IFTIXOR SULTONOVICH

**SHO‘RXOK TUPROQLARDAN SUN‘IY O‘STIRISH MAYDONLARI
SIFATIDA FOYDALANISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH
(Sirdaryo viloyati misolida)**

06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Qx1243 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdau.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Norqulov Usmon

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Durdiyev Normat Hasanovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Kamilov Baxtiyor Sultanovich

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Irrigatsiya va suv muommalari ilmiy tadqiqot instituti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 21-yanvar soat 14⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (+99871 260-48-00); faks: (+99871 260-38-60); e-mail:taug-info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, majlislar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 552086 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 25-dekabrda tarqatildi.

(2024-yil 25-dekabrda 11-raqamli reestr bayonnomasi)

F.B.Namozov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor.

A.A.Qurbonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent.

M.S.Raxmankulov

Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global iqlim o'zgarishi inson faoliyatining turli sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omilga aylanmoqda. U ko'plab mintaqalarda atrof-muhit, iqtisodiyotning turli tarmoqlari, aholi hayoti va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga ta'siri juda katta, chunki bu soha iqtisodiyotning eng ob-havo sharoitiga bog'liq tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha jami 833 million gektardan ortiq sho'rlangan tuproqlar mavjud bo'lib, ko'pchilik mamlakatlarda allaqachon sug'oriladigan ekin maydonlarining katta qismini egallagan, jumladan bu ko'rsatkich Suriyada 50%, Eronda 43%, Pokistonda 40%, Misrda 35%, AQSHda 25-35%, Hindistonda 24 %, Xitoyda yangi o'zlashtirilgan yerlarning o'zida 2,7 million gektarni tashkil etadi¹. Ushbu mamlakatlarda sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, turli noqulay iqlim sharoitlariga bardoshli ekinlarni tanlash, ekinlarni yetishtirishda suv va resurstejamkor texnologiyalarni qo'llashga keng e'tibor qaratilmoqda. Shu bois, oziq-ovqat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash pirovard maqsadiga erishish uchun kuchli sho'rlangan va sho'rxok tuproqlardan unumli foydalanish, mazkur yerlarda ekinlarni yetishtirishda suv va resurs tejoychi yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda iqlim o'zgarishi sharoitida suv tanqisligi barcha qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish jarayonida muammo bo'lmoqda. Ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi va maydoni oshib borayotgan bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanib, turli innovatsion usullarni qo'llash zaruriy shartga aylanmoqda. Dunyoda ko'plab sug'orma dehqonchilik qilinib kelinayotgan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash va tashlandiq yerlardan unumli foydalanish, turli darajada sho'rlangan tuproqlarda sug'orma dehqonchilikda qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketayotgan, ekin ekishga yaroqsiz yerlardan samarali foydalanish maqsadida mos qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish, ekinlarni yetishtirishda suv tejamkor sug'orish texnologiyalarini, jumladan mazkur yerlarda eng mos keluvchi ekinlar qovun va tarvuz yetishtirishda tomchilatib sug'orish tartiblarini ishlab chiqish borasida tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlarning 1 mln 948 ming gektar maydoni turli darajada sho'rlangan, shundan 300 ming gektarini sho'rxok tuproqlar tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"²gi farmonining 2-bob, 3-bandida "...atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish hamda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish" muhim vazifa sifatida belgilab o'tilgan. Shu boisdan, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, meliorativ va irrigatsiya obyektlari tarmog'ini

¹ <http://encyclopedia.uia.org/en/problem/141987>

² <https://lex.uz/docs/5841063>

rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga innovatsion texnologiyalarni, eng avvalo suv va resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalarni joriy etish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni, shu jumladan sho'rxok tuproqlarda ekinlar yetishtirishga oid tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006-son "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-apreldagi 190-son "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning sho'rini yuvish ishlarini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Kuchsiz, o'rta va kuchli sho'rlangan tuproqlar sharoitida tuzlarning ekinlarga salbiy ta'sirini kamaytirishda kimyoviy meliorantlardan foydalanish, tuproqning suv-fizik xossalariga, o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligiga va uning sifatiga tuproq meliorativ holatining ta'sirini o'rganish bo'yicha xorijda L.A.Richards, V.Sardo, T.R.Snith, F.R.Bretherton, D.Balla, S.Maasen, J.Andersson, B.Wyedding, K.Toderski, K.M.Keinzler, A.S.Qureshi hamda Respublikamizda sho'rlangan tuproqlarning meliorativ holatini baholash, suv tejamkor sug'orish texnologiyalari va qishloq xo'jaligi ekinlarini hosildorligini oshirish masalalaridagi tadqiqotlar N.F.Bespalov, U.Norqulov, S.N.Rijov, Q.M.Mirzajonov, A.Y.Nerozin, A.E.Avliyakov, M.X.Xamidov G.A.Bezborodov, R.K.Ikramov, B.Mambetnazarov, M..Avlakulov, S.X.Isayev, T.Rajabov, M.Mahmudov kabi taniqli olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shunga qaramasdan, Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi sho'rxok, og'ir qumoq va taqirsimon tuproqlari sharoitida qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketgan va umuman ekin ekib, foydalanib bo'lmaydigan tashlandiq yerlardan foydalanish, ushbu yerlarda tarvuz va qovunning ilmiy asoslangan sug'orish texnikasini va ularni amalga oshiruvchi yer ustidan va tomchilatib sug'orish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bog'liq bo'lib, Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasining "Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarning elementlarini takomillashtirish" mavzusidagi 2021-2025 yillarga mo'ljallangan tematik rejasining II-bobi, ya'ni

“Kuchli sho‘rlangan va sho‘rxok tuproqlardan sun‘iy o‘stirish maydonlari sifatida foydalanish usullarini ishlab chiqish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Sho‘rxok tuproqlardan sun‘iy o‘stirish maydonlari sifatida poliz ekinlarini yetishtirishda foydalanish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sho‘rxok tuproqlarning genetik tuzilishi, morfologik belgilari va mexanik tarkibini, gipsli, karbonatlik darajasini hamda tuproqlarni suv-fizik xossalarini, agrokimyoviy xususiyatlarini aniqlash;

sho‘rxok tuproqlar sharoitida sizot suvlarining joylashish chuqurligi va minerallashganlik darajalarini aniqlash;

sho‘rxok tuproqlar sharoitida sun‘iy substratlar tarkibi va ularni sho‘rlanishdan himoya qilish usullarini ishlab chiqish;

sun‘iy substratlarda yetishtiriladigan ekinlarni tomchilatib sug‘orish elementlari va sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish;

sun‘iy substratlarda yetishtiriladigan poliz ekinlarni tomchilatib sug‘orishda o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligi va ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanining och tusli bo‘z sho‘rxok tuproqlari qovunning “Dakaro” hamda tarvuzning “Auprodyuser” navlari, tomchilatib sug‘orish, sun‘iy substratlar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, tuproqning agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalari, sizot suvlari sathi, minerallashganlik, sho‘rlanish darajalari, ko‘chat qalinligi, o‘simliklarning o‘sishi-rivojlanishi, hosildorligini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni o‘tkazishda tuproq va o‘simlik tahlillari, fenologik kuzatuv va o‘lchovlar «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari», «Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o‘tkazish uslubi», «Методы агрохимических и агрофизических исследований в поливных хлопковых районах полевых и вегетационных опытов с хлопчатником» uslubiy qo‘llanmalari asosida olib borilgan, olingan natijalarning matematik-statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexovning ko‘p omilli dispersion tahlil uslubi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug‘oriladigan yerlar tarkibidagi qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqarilgan sho‘rxok tuproqlar tarkibidagi tuzlar miqdori quruq qoldiq bo‘yicha 2,184 – 2,253 %, xlor – ioni bo‘yicha 0,423-0,897 %, tuproqning mexanik tarkibi (1 m qatlamda) o‘rta qumoq, tuproqning 0–30 sm qatlamida gumus miqdori 0,591%, harakatchan fosfor 10,4 mg/kg, almashinuvchan kaliy 215,0 mg/kg, tuproqning zichligi 1,40-1,45 g/sm³, sizot suvlarining joylashish chuqurligi 107-145 sm, minerallashganlik darajasi 9,5-14,3 g/l bo‘lganligi aniqlangan;

sho‘rxok tuproqlarni meliorativ agrotadbirlarni bajarmasdan, sho‘rlanishdan himoya qiluvchi: plasmassa tuvakchalar va polietilen plyonka bilan himoyalash usullaridan foydalanib sun‘iy substratlarda poliz ekinlarini yetishtirishda maqbul substrat tarkibi, tomchilatib sug‘orish tartibi va me‘yorlari ishlab chiqilgan;

sho‘rlanishdan himoyalangan va substrat sharoitida yetishtirilgan poliz ekinlarini tomchilatib sug‘orishda sug‘orish soni 70-73 marta, sug‘orish me‘yori 6,2-12,5 m³/ga, mavsumiy sug‘orish me‘yori 626-979 m³/ga dan iborat bo‘lganligi

aniqlangan.

sho'rlanishdan himoyalangan, tarkibida sho'rlanmagan tuproq -30%, qum-20% va chirigan go'ng -50% bo'lgan sun'iy substratlarda poliz ekinlarini tomchilatib sug'orish usuli bilan yetishtirish yuqori hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikka erishishni ta'minlashi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan yerlar tarkibidagi qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqarilgan sho'rxok yerlarni tubdan meliorativ agrotadbirlarni bajarmasdan, sho'rlanishdan himoya qiluvchi plastmassa tuvaklarda va polietilen plyonka bilan o'ralgan substratda (sho'rlanmagan tuproq -30%, qum-20% va chirigan go'ng -50%) qovun va tarvuzni tomchilatib sug'orish usulida yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sho'rlanishdan himoyalangan, substrat sharoitida poliz ekinlarini tomchilatib sug'orish usuli bilan yetishtirilganda qovundan 19,7-22,6 t/ga, tarvuzdan 29,2-33,6 t/ga hosil olinib, yuqori rentabellik darajasini, ya'ni qovunda 124,2-141,8 %, tarvuzda 105,7-116,7 % ni tashkil qilgani aniqlangan;

sho'rxok yerlarni tubdan meliorativ agrotadbirlarni bajarmasdan, sho'rlanishdan himoya qiluvchi plastmassa tuvaklarda va polietilen plyonka bilan o'ralgan substratlarda poliz ekinlarining o'sish va rivojlanish davrlari bo'yicha tuproqdagi sug'orish oldi namligini 80-80-80 foizda ushlab turish mavsumiy sug'orish me'yori 882 m³/ga bo'lishini ta'minlagan holda nazorat variantiga nisbatan tajriba variantlarida sug'orish suvi 5 foizgacha tejalishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ko'p yillik olib borilgan tadqiqot natijalarining matematik-statistik ishlovdan o'tkazilganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy-tadqiqot natijalari bilan qiyosiy taqqoslanganligi, ilmiy hisobotlarning Ilmiy kengash muhokamalaridan o'tganligi, tadqiqot natijalarining yetuk mutaxassislar tomonidan aprobatsiya qilinib, ijobiy baholanganligi hamda olingan tadqiqot natijalarining ishlab chiqarish sharoitida fermer xo'jaliklarida katta maydonda joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'oriladigan yerlar tarkibidagi qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqarilgan sho'rxok tuproqlarni tubdan meliorativ agrotadbirlarni bajarmasdan, ekinlarni sho'rlanishdan himoya qiluvchi plastmassa tuvaklarda, polietilen plyonkaga o'ralgan substratlarda poliz ekinlarini yetishtirishda tomchilatib sug'orish elementlari va tartibining ekinlarning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi hamda yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga ta'sirining ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sho'rxok tuproqlarni tubdan meliorativ agrotadbirlarni bajarmasdan, ekinlarni sho'rlanishdan himoya qiluvchi plastmassa tuvaklarda, polietilen plyonkaga o'ralgan substratlarda tomchilatib sug'orish usuli bilan poliz ekinlarini yetishtirish qo'shimcha kollektor zovur tizimlarini barpo qilish, yerni sho'r yuvishga tayyorlash, sho'r yuvish uchun juda katta me'yorda (20-30 ming m³/ga) suv sarflash, sho'r yuvish natijasida minerallashgan sizot suvlarini ko'tarilishi va tuproqni qayta sho'rlanishi, qilingan sarf-xarajatlarning samaradorligi juda pastligini oldini olish bilan birga ko'zlangan hosil (qovunda 19,7-22,6 t/ga va

tarvuzda 29,2-33,6 t/ga) va yuqori rentabellikka (qovunda 124,2-141,8 %, tarvuzda 105,7-116,7 %) erishishni ta'minlaganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sho'rxok tuproqlardan sun'iy o'stirish maydonlari sifatida foydalanish usullarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

respublikamizning sug'oriladigan sho'rxok tuproqlari ya'ni qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketgan tashlandiq yerlardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda sun'iy foydalanish usullari ishlab chiqilib, ushbu "Sho'r yerlarda poliz ekinlarini yetishtirish usuli" nomli foydali modelga patent (FAP01991) olingan hamda fermer xo'jaliklarida qo'llash bo'yicha tavsiyalar tasdiqlangan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi №02/13-2787 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sho'rxok tuproqlarni tubdan meliorativ agrotadbirlarni bajarmasdan, qovun va tarvuzni plastmassa tuvaklar va polietilin plyonka bilan sho'rlanishdan himoya qilingan holda, maxsus tayyorlangan substratlarda tomchilatib sug'orish usuli bilan yetishtirishda qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

sho'rxok tuproqlardan sun'iy o'stirish maydonlari sifatida foydalanib poliz ekinlarini yetishtirish texnologiyasi 2023-yilda Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumani «Bahorning ilk kunlari» fermer xo'jaligi va «Mirzacho'l Donald Duck» MChJ da jami 0,5 gektar maydonga joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi №02/13-2787 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qovunning "Dakaro" navidan 22 t/ga hamda tarvuzning "Auprodyuser" navidan 33 t/ga hosil olingan;

sho'rxok tuproqlardan sun'iy o'stirish maydonlari sifatida foydalanib poliz ekinlarini yetishtirish texnologiyasi 2023-yilda Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumani «Mirzacho'l Donald Duck» MChJda 0,1 gektar maydonga joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi №02/13-2787 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, poliz ekinlarining o'sish va rivojlanish davrlari bo'yicha tuproqdagi sug'orish oldi namligini, mavsumiy sug'orish me'yori 882 m³/ga bo'lishini ta'minlagan holda nazorat variantiga nisbatan tajriba variantlarida sug'orish suvi 5 foizgacha tejalishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari har yili Toshkent davlat agrar universitetining maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilib, ijobiy baholangan. To'plangan ma'lumotlar asosida tayyorlangan ilmiy hisobotlar har yili Ilmiy kengashlarda muhokama qilingan hamda ilmiy tadqiqot natijalari respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda jami 4 marta ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta patent, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta mahalliy va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obyekt va predmetlari ta’riflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etilgan, izlanishlarning amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi va tarkibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Sho‘rxok tuproqlardan sun’iy o‘stirish maydonlari sifatida foydalanish usullari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi yuzasidan respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlarining kuchsiz, o‘rta va kuchli sho‘rlangan tuproqlar sharoitida tuzlarning ekinlarga salbiy ta’sirini kamaytirishda tuproqning suv-fizik xossalariga, o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligiga va uning sifatiga tuproq meliorativ holatining ta’sirini o‘rganish bo‘yicha respublikamizda N.F.Bespalov, U.Norqulov, Q.M.Mirzajonov, A.Y.Nerozin, A.E.Avliyakov, R.K.Ikramov, M.X.Xamidov, hamda xorijda yerlarning meliorativ holatini baholash, suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari va qishloq xo‘jaligi ekinlarini hosildorligini oshirish masalalaridagi tadqiqotlar L.A.Richards, V.Sardo, T.R.Snith, F.R.Bretherton, D.Balla, S.Maasen, va boshqa olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shunga qaramasdan, Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi sho‘rxok, og‘ir qumoq va taqirsimon tuproqlari sharoitida qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqib ketgan va umuman ekin ekib foydalanib bo‘lmaydigan tashlandiq yerlardan foydalanish, tarvuz va qovunning ilmiy asoslangan sug‘orish texnikasini va ularni amalga oshiruvchi yer ustidan va tomchilatib sug‘orish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlarni o‘tkazish sharoiti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o‘tkazish obyekti, tizimi va uslublari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Tajribalar Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi “Bahorning ilk kunlari” nomli fermer xo‘jaligida hamda “Mirzacho‘l Donald Duck” MCHJning och tusli bo‘z, sho‘rxok tuproqlar 2021-2023 yillarda olib borildi. Qovun va tarvuzni tomchilatib sug‘orish usulida sug‘orish tartiblari borasidagi dala tajribalari quyidagi tizimlarda olib borildi.

1-variant: Shudgorlash, sho‘r yuvish, yerni tayyorlab ekish, ariq olib sug‘orish;

2-variant: Shudgorlash, sho‘r yuvish, yerni tayyorlab ekish, tomchilatib sug‘orish;

3-variant: Ekin ekiladigan maydonchani (chuqurligi 30sm, kengligi 30sm,) plyonka paketlar bilan himoyalangan substratlarga ekishda tomchilatib sug‘orish;

4-variant: Ekin ekiladigan maydonchada maxsus plastmassa tuvakchalar bilan himoyalangan substratlarga ekishda tomchilatib sug‘orish;

5-variant: Ekin ekiladigan maydonchada maxsus plyonkalar bilan himoyalangan substratlarda egat olib ekish va tomchilatib sug‘orish;

Substrat tayyorlash: Substrat tayyorlash uchun sho‘rlanmagan maydonning haydalma qatlamidan (30 sm chuqurlikda) olingan tuproq, suvda yuvilgan mayda qum va to‘liq chirigan go‘ng hamda azot, fosfor va kaliy o‘g‘itlari tuproq hamda qum, chiritilgan go‘ng har qaysi alohida 1,2 mm elakdan o‘tkaziladi va ular o‘zaro aralastirilib polietilendan tayyorlangan plyonka va idishlarga solinadi.

Tayyor bo‘lgan substrat idishlarga o‘simliklarning ko‘chatlari ekiladi.

Tajriba o‘rganilgan substratning tarkibi. Tajribaning 3 (plyonka paketlarda o‘stirish), 4 (plastmassa tuvaklarda o‘stirish), va 5 (polietilen plyonka bilan himoyalangan sharoitda o‘stirish) variantlari uchun maxsus sho‘rlanmagan tuproq (30%) + sho‘rlanmagan qum (20%) va chirigan go‘ng (50%) aralashmasidan tayyorlangan substratdan foydalanildi. Ushbu substratning to‘liq nam sig‘imi 32,3% ni, hajmiy massasi 1,2 g/sm³ ni, pH-ko‘rsatkichi 7,3 ni va EC-ko‘rsatkichi 0,86 ds/sm. AM (substrat tarkibidagi faol mineral moddalar) – 0,60 g/l ni tashkil qildi. Substratning yuqorida keltirilgan tarkibi qovun va tarvuz yetishtirish uchun qulay muhit hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Sho‘rxok tuproqlardan sun‘iy o‘stirish maydonlari tuprog‘ining suv-fizik, agrokimyoviy xossalari”** deb nomlangan uchinchi bobida Tajriba maydoni tuprog‘i och tusli bo‘z, yangi o‘zlashtirilgan (1960-1970y), qayta ikkilamchi sho‘rlangan, 1985 –yillardan boshlab qishloq xo‘jaligi oborotidan chiqarilgan, ishlov berilmagan yer bo‘lib, yer yuzasi asosan qora va oq sho‘rxok, o‘simliklar qoplami juda kam (ayrim yerlarda julg‘un butalari va qisman sho‘r ta‘siriga chidamli bir yillik balq ko‘z (Salsolalanata P.), quyon-juni (Halocharis hispida)), ko‘p yillik o‘simliklardan sho‘r ajrig‘i (Aeluropus litoralis Porl) o‘simliklarining tarqalganligi kuzatildi.

Tajriba maydonida ilmiy tadqiqotlarni boshlanishidan oldin sho‘rlanish darajalarini aniqlash maqsadida uch nuqtadan 1 m. chuqurlikgacha bo‘lgan qatlamdan tuproq namunalari olindi va ularga “Suvli so‘rim” tahlili amalga oshirilib tuproq tarkibidagi anionlardan HCO₃, Cl, SO₄, kationlardan Ca, Mg, Na+K moddalari aniqlandi. Tuproq tahlili natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajriba maydoni tuprog‘i tarkibidagi dastlabki tuzlar miqdori


Nuqta №	Qatlam chuqurligi, sm	Quruq qoldiq	HCO ₃	Cl	SO ₄	Ca	Mg	Na+K
1	0-30	2,180	0,015	0,670	0,411	0,260	0,040	0,600
	30-50	2,310	0,015	0,564	0,320	0,214	0,036	0,780
	50-70	2,236	0,015	0,600	0,470	0,241	0,047	0,600
	70-100	2,213	0,021	0,553	0,411	0,241	0,053	0,703
	O‘rtacha 1 m.	2,184	0,017	0,597	0,403	0,229	0,044	0,671
2	0-30	2,780	0,017	0,923	0,580	0,287	0,051	0,696
	30-50	2,417	0,017	0,870	0,455	0,266	0,050	0,670
	50-70	2,570	0,021	0,896	0,512	0,270	0,050	0,650
	70-100	2,323	0,021	0,900	0,470	0,280	0,050	0,678
	O‘rtacha 1 m.	2,523	0,019	0,897	0,502	0,276	0,050	0,674
3	0-30	2,213	0,014	0,460	0,660	0,270	0,063	0,683
	30-50	2,201	0,015	0,300	0,613	0,323	0,054	0,677
	50-70	2,242	0,015	0,470	0,686	0,370	0,063	0,600
	70-100	2,280	0,015	0,460	0,617	0,355	0,055	0,678
	O‘rtacha 1 m.	2,234	0,015	0,423	0,644	0,330	0,059	0,660

Tajriba maydoni tuprog'i tarkibidagi suvda eriydigan tuzlar tadqiqotning boshlanishida uchta nuqtadan 1 m. gacha bo'lgan chuqurlikdan olingan tuproq namunalari bo'yicha aniqlandi. Ushbu ma'lumotlarini ko'rsatishicha tajriba maydoni tuprog'ining o'rtacha 1 m. qatlamida tuzlarning quruq qoldiq bo'yicha aniqlangan miqdori 2,314% ni shundan Na+K-0,671%, Xlor- ioni – 0,639%, Sulfat-0,517%, kalsiy-0,278% va magniy -0,051% ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkichlar sho'rlanish darajalari bo'yicha qabul qilingan klassifikatsiyaga muvofiq sho'rxok tuproqlar (quruq qoldiq >2,0%, xlor ioni- > 0,140%, natriy->0,184%) tipiga mos ekanligi aniqlandi.

Tajriba maydoni tuprog'ining sho'rlanish darajasini baholashda EC (ds/sm) ko'rsatkichi ham o'rganildi. Bunda tuproqning 1 m. qatlamidagi EC ko'rsatkichi 3,0-4,35 bo'lganligi aniqlanib, bu tuproqning kuchli va juda kuchli sho'rlanganligini ko'rsatdi.

Tajriba maydonining nazariy sho'r yuvish me'yori: A.Y.Nerozin formulasi yordamida aniqlandi va 1 m. qatlamidagi tuzlarni to'liq yuvish uchun zarur bo'lgan umumiy sho'r yuvish me'yori 32039 m³/ga. bo'lganligi aniqlandi.



1-rasm. Tuproq qatlamlaridagi tuzlar anion va kationlarning taqsimlanishi.


Tajribaning 1-variantida sizot suvlarining joylashish chuqurligiga bog'liq holda hisoblab chiqilgan, sho'r yuvish me'yori keltirilgan.

Tajriba maydonida nazariy sho'r yuvish me'yori 1-yuvishda 1181 m³/ga, 2 – yuvishda 609 m³/ga, va 3 – yuvishda esa 345 m³/ga.ni amaliy sho'r yuvish me'yori nazariy me'yorga mos ravishda 1200, 657 va 375 m³/ga.ni yoki umumiy sho'r yuvish me'yori 2232 m³/ga.ni tashkil qildi.

Tajribaning 1-variantida sho'r yuvish davomida berilgan suv me'yori sizot suvi sathini 1,42 m.dan 1,19 sm.gacha ko'tardi, tuproqning 1 m. qatlamidagi namlik miqdori 14,5% dan 20,1% gacha oshdi, natijada keyingi sho'r yuvishlarni amalga oshirish samarasiz ekanligi aniqlandi.

Tomchilatib sug'orish usuli bilan sho'r yuvishdagi suv sarfi (2-variant)


Sho'r yuvish soni	Sho'r yuvish muddati va davomiyligi, kun	Me'yori m ³ /ga	Taktlar soni	Bir martalik me'yori, l.	Sho'r yuvish davomiyligi, soni	Sho'r yuvilgan kunlar, kun/oy
1	1-25.XI	1200	12	100000	33	11-12
2	2-26.XII	1200	12	100000	33	11-12
3	1-25.01	1200	12	100000	33	11-12
4	1-25.02	1200	12	100000	33	11-12
Jami	115	4800	48	4800000	132	



2-rasm. Tomchilatib sho'r yuvishda tuproqning yon tomonlari bo'yicha namlanishi %.

Tajriba maydonida sho'r yuvish uchun berilgan suv me'yorlari sho'r yuvish usullariga (cheklar orqali va tomchilatib sug'orish usuli) bog'liq holda tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvilishiga olib keldi.

Tajribaning 1-variantida (cheklar orqali) sho'r yuvishga sarflangan 2232 m³/ga suv tuproq tarkibidagi tuzlarni sho'rxok darajasidan o'rtacha va kuchli sho'rlanish darajasigacha kamaytirdi. Tajribaning 2-variantida (tomchilatib sho'r yuvish) umumiy sho'r yuvish me'yori 4800 m³/ga bo'lganda tuproq tarkibidagi tuzlar miqdori tomchilatib sug'orish quvurlari atrofidagi 100 sm (50+50 sm) kenglikdagi va chuqurligi 100 sm. bo'lgan masofadagi tuzlar kuchsiz sho'rlanish darajasigacha kamaydi, 200 sm (100+100sm) masofadagi tuzlar o'rtacha sho'rlanish darajasigacha kamaydi, 300 sm (150+150 sm) masofadagi tuzlar esa yuvilmasdan sho'rxok darajasida saqlanib qoldi.



3-rasm. Tajribaning 2-variantida tuproq tarkibidagi tuzlarning yuvilishi.

Tajriba maydonida poliz ekinlarini sug'orish tartiblarini o'rganishda har bir variantga o'suv davrida oylar bo'yicha beriladigan sug'orish soni, sug'orish me'yori, oylik sug'orish me'yori, mavsumiy sug'orish me'yori, sho'rlanishdan himoya qilingan va zovurlashtirilib substratlarda yetishtirilgan poliz ekinlarining bir tup o'simlik uchun sarflangan suv sarflari o'rganildi.


3-jadval

Tajriba maydonida poliz ekinlarini sug'orish tartiblari, o'rtacha 3 yillik m³/ga


№	Ko'rsatkichlar	Oylar					Umumiy
		IV	V	VI	VII	VIII	
1	Sug'orish soni		1	1	1		3
	sug'orish me'yori m ³ /ga		900	800	750		2450
2	Sug'orish soni	2-3	13	17	18	15	66
	sug'orish me'yori m ³ /ga	10,3	13,1	16,2	16,2	12,4	961
3	Sug'orish soni	2-3	13	17	16	14	63
	sug'orish me'yori m ³ /ga	5,8	8,4	10,4	11,7	8,9	625
4	Sug'orish soni	2-3	15	20	20	15	72
	sug'orish me'yori m ³ /ga	8,9	11,7	12,4	12,9	11,8	882
5	Sug'orish soni	2-3	15	20	20	15	72
	sug'orish me'yori m ³ /ga	8,9	11,7	12,4	12,9	11,8	882

Izoh: 4 va 5- variantlarda 1 sentner hosil uchun sarflangan suv miqdori 2,7 m³ ni tashkil qildi.

Dissertatsiyaning "Tajribada ekinlarning suvga bo'lgan talabi, o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi hamda yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi" deb nomlangan to'rtinchi bobida tajriba maydonida tarvuz va qovun ekinlarini suvga bo'lgan talabi, sug'orish muddatlari, me'yori va sug'orish sonlari variantlar bo'yicha o'rganilish natijalari keltirilgan. Yuqorida keltirilgan variantlar bo'yicha sug'orish tartiblari qovun va tarvuzning o'sishi, rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, tajribada variantlar bo'yicha qovun va tarvuzning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi bo'yicha olingan natijalar keltirilgan.



4-rasm. Tajriba variantlari bo'yicha mavsumiy suv sarfi, m³/ga.



5-rasm. Poliz ekinlarini rivojlanish davrlari bo'yicha suv sarfi, m³/ga

Tajriba maydonida qovunning rivojlanish davrlari davomida variantlar ichida eng past asosiy poya uzunligi tajribaning 2-variantida (tuproqda o'stirib, tomchilatib sug'orish) kuzatildi. Bu variantda qovunning shonalash davridagi poya uzunligi 30,0-33,2 sm.ni, yon shoxlar soni esa 2,0 donani, gullash-meva tugish davrida esa asosiy poya uzunligi 113,2-114,2 sm, yon shoxlar soni 3,0-3,1 donani, pishish davrida esa yuqoridagi ko'rsatkichlarga mos ravishda 153,0-155,2 sm va 3,0-3,3 dona bo'lganligi aniqlandi.

Tajribada nisbatan yuqori o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari 4 (tuvaklardagi substratlar va tomchilatib sug'orish) va 5 (polietilin plyonka bilan sho'rlanishdan

himoya qilingan va substratlarga ekilib, tomchilatib sugʻorish) variantlarida kuzatildi. Bu variantlarda qovunning asosiy poya uzunligi shonalash davrida 33,8-36,5 sm, yon shoxlar soni 2,3-2,5 dona, gullash-meva tugish davridagi asosiy poya uzunligi 115,1-118,8 sm, yon shoxlar soni 4,1-4,8 dona; pishish davrida esa asosiy poya uzunligi 160,5-167,9 sm, yon shoxlari soni 4,6-5,8 dona boʻldi.

Bu variantlarda shonalash davridagi asosiy poya uzunligi yillar boʻyicha oʻrtacha 41,2-46,2 sm, yon shoxlar soni 2,6-3,3 donani, gullash va meva tugish davrida 121,6-131,2 sm. 4,5-5,5 dona, pishish davrida esa 171,4-178,5 sm. va 4,8-5,6 donani tashkil qildi.

4-jadval

Tajriba maydonida yetishtirilgan tarvuzning umumiy hosildorligi, t/ga

Variantlar	Takrorlanishlar			Oʻrtacha
	I	II	III	
2021-yil				
1	-	-	-	-
2	18,7	18,1	18,7	18,5
3	23,4	23,0	23,9	23,4
4	29,2	29,8	29,0	29,2
5	30,6	30,9	30,9	30,8
NSR ₀₅	0,81 s/ga			
NSR ₀₅	3,17 %			
2022-yil				
2	21,4	21,5	21,3	21,4
3	26,7	26,9	26,5	26,7
4	31,3	31,7	32,5	31,8
5	33,8	33,3	33,7	33,6
NSR ₀₅	0,77 s/ga			
NSR ₀₅	2,73 %			
2023-yil				
2	22,4	22,8	22,1	22,3
3	26,3	26,2	26,0	26,1
4	32,3	32,7	31,9	32,2
5	33,9	33,5	33,1	33,4
NSR ₀₅	0,44 s/ga			
NSR ₀₅	1,53 %			

Tajriba maydonida yetishtirilgan qovun va tarvuzning eng yuqori o'sish va rivojlanishi tajribaning 4-variant (sho'rlanishdan himoya qilish uchun plasmassa tuvaklar) va 5-variant (sho'rlanishdan himoya qilishda polietilen plyonkadan foydalanish) hamda ularni drenaj tizimi bilan jihozlab, maxsus substratlarda (tuproq-30%, qum 20%, biogumus 50%) tomchilatib sug'orish usuli yordamida yetishtirilganda qovunning shonalash davrida asosiy poya uzunligi 37,3-39,2 sm. o'suv shoxlari 2,2-2,5 dona, gullash va mevalash davrida 117,8-121,0 sm. va 3,0-3,5 dona, pishish davrida 163,2-168,4 sm, 3,5-3,6 dona bo'lganligi, tarvuzning shonalash davrida asosiy poya uzunligi 41,2-46,2 sm, yon shoxlar soni 2,6-3,3 dona; gullash meva tugish davrida 121,6-131,2 sm, 4,5-5,5 dona, pishish davrida esa 171,4-178,5 sm, 4,8-5,6 dona bo'lganligi aniqlandi.

5-jadval

Tajriba maydonida yetishtirilgan qovunning umumiy hosildorligi, t/ga

Variantlar	Takrorlanishlar			O'rtacha
	I	II	III	
2021-yil				
1	-	-	-	-
2	11,2	12,0	10,4	11,2
3	16,3	16,8	15,7	16,3
4	20,0	21,3	19,5	20,1
5	22,5	22,7	21,9	22,5
NSR ₀₅	0,54 s/ga			
NSR ₀₅	3,11 %			
2022-yil				
2	12,1	12,3	11,5	12,0
3	17,2	17,7	16,9	17,2
4	19,7	20,5	19,1	19,7
5	22,3	23,0	21,7	22,3
NSR ₀₅	0,36 s/ga			
NSR ₀₅	2,02 %			
2023-yil				
2	12,7	12,0	12,4	12,4
3	17,6	17,8	16,9	17,4
4	20,6	21,1	19,6	20,4
5	22,6	23	21,8	22,5
NSR ₀₅	0,85 s/ga			
NSR ₀₅	4,68%			

Tajriba maydonida yetishtirilgan qovun va tarvuzning o'suv davri davomiyligi tomchilatib sug'orish usuli bilan yetishtirilganda (2-variantda) umumiy o'suv davrining davomiyligi qovunda 83 – 84 kun, tarvuzda 85 – 89 kun, sho'rlanishdan

himoya qilingan variantlarda (4 va 5 variantlar) qovunda 77 – 80 kun, tarvuzda 78 – 80 kun bo‘lganligi aniqlandi.

Tajriba maydonida yetishtirilgan tarvuzning rivojlanish davrlari oralig‘idagi kunlar o‘rganilganda bunda ham qovun singari urug‘ ekishdan ko‘chat tayyor bo‘lishigacha ketgan vaqt 23 – 25 kunni, shonalashgacha bo‘lgan davr 2-variantda 13 – 14 kun, gullash va meva tugish davri 17 – 18 kun, pishishgacha bo‘lgan davri 30 – 35 kunni tashkil qildi. Tajribaning 4 va 5 variantlarida esa shonalash davrigacha 10 – 12 kun, gullash va meva tugish davrigacha 13 – 15 kun, pishish davrigacha 29 – 32 kun, umumiy o‘sov davrining davomiyligi urug‘ ekishdan pishishgacha bo‘lgan davr 2-variantda 85 – 89 kun, 4 va 5 variantda 78 – 80 kunni tashkil qildi.

Tajriba maydonida yetishtirilgan tarvuzning hosildorligi 4–jadvalda keltirilgan. Tajribada variantlar bo‘yicha 18,5-33,6 t/ga hosil olishga erishildi, shundan eng yuqori hosildorlik 5-variantda, ya’ni nazorat variantiga nisbatan 12,4 t/ga yuqori hosil olinganligi aniqlangan.

Tajriba maydonida yetishtirilgan qovunning hosildorligi 5–jadvalda keltirilgan. Tajribada variantlar bo‘yicha 11,2-22,5 t/ga hosil olishga erishildi, shundan eng yuqori hosildorlik 5-variantda ya’ni nazorat variantiga nisbatan 11,3 t/ga yuqori hosil olinganligi aniqlangan.

Tajriba maydonida yetishtirilgan tarvuz va qovunning iqtisodiy samaradorligi o‘rganilganda barcha variantlar bo‘yicha tajribaning birinchi yilida asosiy xarajatlar (tomchilatib sug‘orish, drenaj tizimi, sho‘rlanishdan himoya qiluvchi va substrat materiallari hisobiga) nisbatan ko‘p bo‘lganligi uchun sof foyda olinmadi, (tarvuz yetishtirishda 14 121 000 – 39 100 000 so‘m/ga, qovun yetishtirishda 11 912 000 – 26 050 000 so‘m/ga zarar bilan yakunlandi), tajribaning ikkinchi va uchinchi yillarida esa asosiy xarajatlar bo‘lmaganligi uchun sof foyda nisbatan yuqori bo‘ldi. bu tarvuz yetishtirishda 13 090 000 – 25 390 000 so‘m/ga, qovun yetishtirishda 13 950 000 – 33 130 000 so‘m/ga.ni tashkil qildi.

XULOSALAR

1. Tajriba maydoni tuprog‘i sug‘oriladigan o‘tloqlashib borayotgan och tusli bo‘z, qishloq xo‘jaligi tarkibidan chiqarilgan sho‘rxok tuproqlar, 1 m. qatlamdagi tuzlarning miqdori quruq qoldiq bo‘yicha 2,184-2,523 %, xlor-ioni bo‘yicha 0,423-0,897 %, natriy -0,671 %, EC – ko‘rsatkichi bo‘yicha 3,0-4,35 dm/m bo‘lganligi aniqlandi.

2. Tuproqning mexanik tarkibi bo‘yicha – o‘rta qumoq, haydalma qatlamdagi (0-30 sm) gumus miqdori 0,591 %, harakatchan fosfor 10,4 mg/kg, almashinuvchan kaliy -215 mg/kg, tuproqning zichligi 1 m. qatlamda 1,45 g/sm³, sizot suvlariniing joylashish chuqurligi 107-145 sm, minerallashganlik darajasi 9,5-14,3 g/l.ni tashkil qildi.

3. Sho‘rxok darajadagi tajriba maydoni tuprog‘ining nazariy umumiy sho‘r yuvish me‘yori A.Y.Nerozin formulasi bo‘yicha aniqlanganda 32039 m³/ga bo‘lishi kerakligi va bu sho‘r yuvish me‘yorini 1000-2200 m³/ga me‘yorlarda 15-18 marta bo‘lib berish kerakligi, shuningdek hozirgi suv tanqisligi sharoitida yuqorida keltirilgan sho‘r yuvish me‘yori bilan sho‘r yuvishning imkoniyati yo‘qligi aniqlandi.

4. Tajriba maydonida sho'rxok tuproqlarni tubdan meliorativ agrotadbirlarni bajarmasdan, poliz ekinlaridan qovun va tarvuzni plastmassa tuvaklar- 4 variant (chuqurligi 30sm, kengligi 40 sm) chuqurchalarga o'rnatildi va polietilin plyonka 5-variant (chuqurligi 30 sm, kengligi 30 sm, uzunligi 100 m.) bilan sho'rlanishdan himoya qilingan holda, ularni sho'rlanmagan tuproq -30%, qum-20% va chirigan go'ng -50% aralashmasidan tayyorlangan substratlarda tomchilatib sug'orish usuli bilan yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqildi (FAP №01991).

5. Sho'rlanishdan himoya qilingan substrat sharoitida yetishtirilgan poliz ekinlarini tomchilatib sug'orishda sug'orish soni 70-73 marta, sug'orish me'yori 6,2-12,5 m³/ga va mavsumiy sug'orish me'yori 1060 m³/ga bo'lishi kerakligi va tajribaning 2-variantiga (sho'rlanishdan himoyalalmagan sharoitda tomchilatib sug'orish) nisbatan 5 % suv tejalishiga erishildi.

6. Poliz ekinlarini rivojlanish davrlari bo'yicha suv sarfi tajribaning 4- va 5-variantlarida shonalash davrida 378 m³/ga, gullash va meva tugish davrida 506 m³/ga va pishish davrida 175 m³/ga suv talab qilganligi yoki mavsum davomidagi suvga bo'lgan talab koeffitsiyenti 1,07 ni tashkil qilib, bu an'anaviy texnologiya asosida poliz ekinlarini yetishtirishdagi suvga bo'lgan talab koeffitsiyentidan (5,17) 80% gacha kam bo'ldi.

7. Tajriba maydonida yetishtirilgan qovun va tarvuzning eng yuqori o'sish va rivojlanishi ko'rsatkichlari tajribaning 4-variant (sho'rlanishdan himoya qilish uchun plasmassa tuvaklar) va 5-variant (sho'rlanishdan himoya qilishda polietilen plyonkadan foydalanish) hamda ularni drenaj tizimi bilan jihozlab, maxsus substratlarda (tuproq-30%, qum 20%, biogumus 50%) tomchilatib sug'orish usuli yordamida yetishtirilganda kuzatilib, qovunning shonalash davrida asosiy poya uzunligi 37,3-39,2 sm. o'suv shoxlari 2,2-2,5 dona, gullash va mevalash davrida 117,8-121,0 sm. va 3,0-3,5 dona, pishish davrida 163,2-168,4 sm, 3,5-3,6 dona bo'lganligi, tarvuzning shonalash davrida asosiy poya uzunligi 41,2-46,2 sm. yon shoxlar soni 2,6-3,3 dona, gullash va mevalash davrida 121,6-131,2 sm. 4,5-5,5 dona va pishish davrida esa 171,4-178,5 sm, 4,8-5,6 dona bo'lganligi aniqlandi.

8. Qovun va tarvuzning tuproqdagi tuzlardan himoya qilinmagan holda tomchilatib sug'orish usuli bilan yetishtirilganda (2-variantda) umumiy o'suv davrining davomiyligi qovunda 83-84 kun, tarvuzda 85-89 kun, sho'rlanishdan himoya qilingan variantlarda (4 va 5 variantlar) qovunda 77-80 kun, tarvuzda 78-80 kun bo'lganligi aniqlandi.

9. Barcha variantlar bo'yicha tajribaning birinchi yilida asosiy xarajatlar (tomchilatib sug'orish, drenaj tizimi, sho'rlanishdan himoya qiluvchi va substrat materiallari hisobiga) nisbatan ko'p bo'lganligi uchun sof foyda olinmadi (tarvuz yetishtirishda 14 121 000 – 39 100 000 so'm/ga, qovun yetishtirishda 11 912 000 – 26 050 000 so'm/ga zarar bilan yakunlandi), tajribaning ikkinchi va uchinchi yillarida esa asosiy xarajatlar bo'lmaganligi uchun sof foyda nisbatan yuqori bo'ldi. bu tarvuz yetishtirishda 13 090 000 – 25 390 000 so'm/ga, qovun yetishtirishda 13 950 000 – 33 130 000 so'm/ga.ni tashkil qildi.

10. Sho'rxok tuproqlarni tubdan meliorativ agrotadbirlarni bajarmasdan: qovun va tarvuzni plastmassa tuvaklarni chuqurligi va kengligi 30 sm, har 80 sm oraliqda uzunligi 100 m. bo'lgan transheyalarga joylashtirib, ularni doimiy drenaj

quvurlariga (drenaj d-20 mm) tutashtirish va tuvaklarni substrat bilan to'ldirib qovun va tarvuz ko'chatlarini ekib, tomchilatib sug'orish;

polietilin plyonka bilan tuzlardan himoya qilingan (kengligi va chuqurligi 30 sm, uzunligi 100 m bo'lgan transheyalarga polietilin plyonka to'shab uning ustiga d-20 mm bo'lgan polietilin quvurli drenaj yotqizish va har 20-30 sm.da 2 mm. teshib, teshikka filtr o'rnatish) va plyonkali transheyaga substrat solib, qovun va tarvuz ko'chatlarini ekib tomchilatib sug'orishda sug'orishlar soni 70-73 marta, sug'orish me'yori 6,2-12,5 m³/ga, mavsumiy sug'orish me'yori 625-979 m³/ga bo'lishi tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD), СОЗДАННЫЙ НА
ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЭРГАШЕВ ИФТИХОР СУЛТОНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЛОНЧАКОВЫХ
ПОЧВ В КАЧЕСТВЕ ИСКУССТВЕННЫХ ПЛОЩАДЕЙ
ВЫРАЩИВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

06.01.02 – Мелиорация и орошаемое земледелие

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.4.PhD/Qx1243.

Диссертация доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам выполнена в Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице научного совета (www.tdau.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:	Норкулов Усмон доктор сельскохозяйственных наук, профессор
Официальные оппоненты:	Дурдиев Нормат Хасанович доктор сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник Камилов Бахтиёр Султанович кандидат сельскохозяйственных наук, профессор
Ведущая организация:	Научно-исследовательский институт ирригации и водных проблем

Защита диссертации состоится " 21 " января 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании разового научного совета по присуждению ученой степени доктора философии (PhD) на основе Научного совета DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 при Ташкентском государственном аграрном университете. (Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, ул. Университетская, 2, Тел.: (+99871) 260-48-00; факс: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag_info@edu.uz).

С диссертацией доктора философии (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована за № 552086). Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университетская, дом 2, Информационно-ресурсный центр Ташкентского государственного аграрного университета. Тел.: (+99871) 260-50-43.

Автореферат диссертации разослан 25 декабря 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 11 от 25 декабря 2024 года)

Ф.Б.Намозов

Председатель разового совета при научном совете по присуждению учёных степеней, д.с/х.н., профессор

А.А.Курбонов

Ученый секретарь разового совета при научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.с/х.н. (PhD), доцент

М.С.Рахманкулов

Председатель разового научного семинара при разовом научном совете, д.с.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире глобальное изменение климата становится фактором, который может оказать существенное влияние на различные сферы деятельности человека. Это оказывает негативное влияние на окружающую среду, различные отрасли экономики, жизнь и здоровье населения во многих регионах. В особенности, влияние изменения климата на сельское хозяйство очень велико, поскольку эта отрасль считается одной из наиболее зависимых от погодных условий секторов экономики. На сегодняшний день в мире насчитывается более 833 миллионов гектаров засоленных земель, которые уже занимают значительную часть орошаемых земель во многих странах, в том числе, в Сирии этот показатель составляет 50%, в Иране – 43%, в Пакистане – 40%, в Египте – 35%, в США – 25-35%, в Индии – 24%, а в Китае только на новых освоенных землях засоленность достигает 2,7 миллиона гектаров¹. В этих странах большое внимание уделяется улучшению мелиоративного состояния засоленных земель, подбору толерантных к различным неблагоприятным климатическим условиям культур, применению водо- и ресурсосберегающих технологий при выращивании культур. В связи с этим, для достижения конечной цели – обеспечения продовольственной безопасности и стабильности одной из актуальных задач является эффективное использование сильнозасоленных и солончаковых почв, разработка водо- и ресурсосберегающих технологий возделывания при выращивании сельскохозяйственных культур на этих землях.

В условиях изменения климата в мире водный дефицит становится проблемой в процессе выращивания всех сельскохозяйственных культур. Особенно на сегодняшний день, когда степень и площади засоления орошаемых земель увеличиваются, необходимым условием становится полное использование имеющихся возможностей и применение различных инновационных методов выращивания сельскохозяйственной продукции. В мире, с целью улучшения мелиоративного состояния почв в орошаемом земледелии и продуктивного применения заброшенных земель, эффективного использования выбывающих из сельскохозяйственного оборота, непригодных для посева культур земель в орошаемом земледелии на засоленных в различной степени почвах важное значение имеет проведение исследований по посеву соответствующих культур, разработке водосберегающих технологий орошения при возделывании культур, в том числе режимов капельного полива при выращивании подходящих для этих земель таких культур, как дыни и арбузы.

В Республике Узбекистан 1 миллион 948 тысяч гектаров орошаемых земель засолены в различной степени, из них 300 тысяч гектаров составляют солончаковые почвы. В 3-м разделе 2-й главы Указа Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы»² в

¹ <http://encyclopedia.uia.org/en/problem/141987>

² <https://lex.uz/docs/5841063>

